

Komilaxon XUSANOVA,
O'zMU tayanch doktoranti
E-mail: xusanovakomilaxon711@gmail.com

O'zMU iqtisodiy va ijtimoiy geografiya kafedrasи dotsenti U.Egamberdiyeva taqrizi ostida

FACTORS AFFECTING NOZOGEOGRAPHIC SITUATION IN TASHKENT PROVINCE

Annotation

In this article, what factors influence the nosogeographical situation of Tashkent region and their analysis is presented. Some aspects of population morbidity indicators of the region are highlighted. The state of atmospheric air pollution, which negatively affects the nosogeographical situation, is revealed in the cross-section of districts.

Key words: nosogeographic situation, disease types, industrial enterprises, industrial cities, negative impact.

ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА НОЗОГЕОГРАФИЧЕСКУЮ СИТУАЦИЮ В ТАШКЕНТСКОЙ ОБЛАСТИ

Аннотация

В данной статье представлены какие факторы влияют на нозогеографическую ситуацию Ташкентской области и их анализ. Освещены некоторые аспекты показателей заболеваемости населения региона. В разрезе районов выявлено состояние загрязнения атмосферного воздуха, которое негативно влияет на нозогеографическую ситуацию.

Ключевые слова: нозогеографическая ситуация, виды заболеваний, промышленные предприятия, промышленные города, негативное воздействие.

TOSHKENT VILOYATIDA NOZOGEOGRAFIK VAZIYATGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada Toshkent viloyati nozogeografik vaziyatiga qanday omillar ta'sir qilishi va ularning tahlili berilgan. Viloyatning aholi kasallanish ko'rsatkichlarining ayrim jihatlari yoritilgan. Nozogeografik vaziyatga salbiy ta'sir etuvchi atmosfera havosining ifloslanishi qay holatda ekanligi tumanlar kesimida ochib berilgan.

Kalit so'zlar: nozogeografik vaziyat, kasallik turlari, sanoat korxonalari, sanoat shaharlari, salbiy ta'sir.

Kirish. Hozirgi kunda respublikamiz bo'ylab aholi salomatligini yaxshilash, tibbiy sanitark holat, kasalliklarni yuzaga keltiruvchi tibbiy geografik, nozogeografik vaziyatga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish va ular keltirib chiqarayotgan kasalliklarni kamaytirishga qaratilgan chora tadbirlar kengaymoqda. "Aholi salomatligi-2030" milliy strategiyasi loyihasi doirasida sog'liqni saqlash tizimiga aloqador bo'lgan 12 ta asosiy yo'nalish va ushbu yo'nalishlar doirasida 2030 yilgacha bajarilishi kerak bo'lgan 77 ta vazifa belgilangan. Ushbu strategiyaning 2-yo'nalishida 7- vazifa qilib "O'zbekiston aholisi orasida xalqaro qabul qilingan standart metodologiya asosida keng ko'lamli tadqiqotlar o'tkazish" belgilangan. Bunga ko'ra 2024-2025-yillarda JSST va Unisef xalqaro tashkilotlari ko'magida "anemiya (temir moddasi, V12 vitamini yetishmasligi), yod yetishmasligi, foliy kislotasi va A vitaminini yetishmasligining tarqaganligi va sabablarini o'rghanish" ustuvor vazifasini amalga oshirish rejalashtirilgan. Mazkur loyihalar doirasidan kelib chiqqan holda aholi salomatligiga ta'sir etuvchi tibbiy geografik va nozogeografik holatni tadqiq etish, aholi orasida turli kasallik turlarini kamaytirish, salomatlik ko'rsatkichlarini yanada yaxshilash borasida turli ilmiy amaliy izlanishlarni olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tibbiy geografiyasini fan sifatida shakllanishida Girsh, Finke kabi olimlarning o'rni beqiyos. Nozogeografiya, tibbiy geografiyasiga oid dastlabki tadqiqotlar rivojlanishida esa Y.N.Pavlovskiy, D.K.Zabolotniy, A.P.Markovin, A.A.Shoshin, YE.I.Ignatyev, A.G.Voronov kabi olimlarning hissalarini katta. Shu bilan bir qatorda S.M.Malxazova va V.M.Neronovning tadqiqotlari ham alohida ahamiyatga molik. O'zbekistonda bu sohaga oid tadqiqotlar N.Komilova, M.Hamroyev, A.X.Ravshanov, N.J.Muxammedova, Z.D.Tillaxodjayeva kabi olimlar tomonidan olib borilgan[2]. Hozirgi kunda nozogeografik vaziyatga oid tadqiqotlar ko'lami ancha kengayib ko'pgina yosh olimlar tomonidan amalga oshirilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada uzoq xorij va Rossiya tibbiy geograf olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga asosiy urg'u berildi[10,11].

Tabbiy muhitning ifloslanishining oldini olish, aholi salomatligini o'rghanish, baholash, hududlar nozogeografik vaziyatni optimallashtirish bo'yicha ilmiy izlanishlar jahoning yetakchi tashkilotlari, ilmiy markazlari va olyi ta'lim muassasalarida, jumladan: University of Southampton, Ohio State University, Michigan State University, Cambridge University, University of California Berkeley, University of Florida (AQSh) , University of London, Moskva davlat universiteti (Rossiya) va boshqa tadqiqot markazlarida olib borilmoqda. Ta'kidlash zarurki, nozoekologik tadqiqotlar, ya'ni aholining kasallanish ko'rsatkichlarini hamda ularning hududiy tarkibi masalalari xorijiy olimlar orasida J.May, Melinda S.Meade, G. Moon, Serge Morand, Claire Lajaunie, Amber Pearson, Elisabeth Dowling Root, Michael E.Emch asarlarida uchraydi. Bunday tadqiqotlar chor Rossiyasi, keyinchalik sobiq Ittifoq olimlari jumladan, D.K.Zabolotniy, Y.N.Pavlovskiy, A.A.Shoshin, A.V.Chaklin, A.P.Avsin, Y.I.Ignatev, V.P.Podolyan, A.A.Keller, A.G.Voronov, N.F.Reymers, V.P.Kaznacheev va boshqa olimlarning tadqiqotlarida uchraydi.

Maqolani yozishda O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligi, Toshkent viloyati statistika qo'mitasi ma'lumotlari hamda muallifning o'r ganilayotgan hududlarda kuzatuv ishlari asosida bajarilgani bilan belgilanadi.

Tahlil va natijalar. Toshkent viloyatida nozogeografik vaziyat va aholi salomatligiga salbiy ta'sir etuvchi bir qancha omillar va shu muammolarni yuzaga keltirayotgan manbalar mavjud. Bu omillar atmosfera havosining ifloslanganligi, ichimlik suvlariga sanoat korxonalarini chiqindilarining tashlanishi, atrof-muhitni ifloslovchi sanoat korxonalarining ko'pligi va aholi yashovchi hududlarda joylashganligi va yana bir qator jihatlardan iborat. Ushbu omillardan eng asosiyalarini tahlil qilib chiqamiz.

Aholi salomatligi va nozogeografik vaziyat bevosita atmosfera havosining tozaligi bilan bog'liq. Viloyat hududida atmosfera hududiga ko'p miqdorda ifloslantirovchi moddalar chiqariladi.(1-jadval)

1-jadval

Toshkent viloyatida atmosferaga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar
(tonna)


Yillar	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
--------	------	------	------	------	------	------	------	------	------

tumanlar									
	124,3	129,8	122,1	122,9	283,6	766,3	372,4	297,9	300,7
Oqqo'rg'on	9584,0	9382,1	10457,1	544,8	16479,8	880,3	791,1	166158,9	166886,1
Ohangaron	186,0	669,4	664,6	81,6	992,9	9,7	9,9	6,6	11,3
Bekobod	208,9	207,5	222,2	294,4	8254,4	255,4	272,6	418,2	692,3
Bo'ka	39,7	54,6	94,6	34,0	32,9	13,3	4,6	23,6	45,6
Quyi Chirchiq	115,6	96,0	94,4	36,1	71,3	68,7	21,7	32,2	69,5
Zangiota	450,6	1152,7	840,2	684,5	465,4	431,2	430,1	542,7	862,5
Yuqori Chirchiq	252,6	192,2	287,1	572,0	1722,7	455,0	307,2	145,8	278,9
Qibray	4511,9	56992,0	43297,1	9295,8	7559,4	7500,8	9581,3	9802,8	9899,0
Parkent	254,7	301,9	204,9	212,0	238,8	203,8	77,5	78,9	424,4
Pskent	45,9	98,2	120,4	768,2	923,5	263,7	182,5	159,3	307,0
O'rta Chirchiq	224862,3	317,4	263,1	248,4	160,2	18768,4	316,9	214,2	317,0
Chinoz	139,4	431,3	123,2	142,8	410,5	223,5	96,1	685,7	777,2
Yangiyo'l	1012,6	1409,5	1699,8	849,2	962,9	767,6	493,3	722,5	958,8
Toshkent	0,0	0,0	0,0	153,8	219,3	138,1	151,4	192,7	324,1

Izoh: Jadval Toshkent viloyati statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

O'zbekiston Respublikasi ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra so'nggi yillarda atmosferaga chiqarilgan umumiyyat muddalarining 36,2 foizi sanoat korxonalari hissasiga to'g'ri keladi. Sanoat obyektlarining aksariyat qismi ya'nini 37,9 foizi Toshkent viloyati hissasiga to'g'ri keladi. 2023-yilda Toshkent viloyatida 426 ming tonna zararli muddalar atmosferaga chiqarilgan. Xususan, atmosfera havosining iflosanishi ushbu omillardan eng asosiyis hisoblanadi.

Aynan shu sanoat korxonalar ta'sirida atrof-muhit iflosanadi, atrof muhit iflosligi bo'lsa aholi orasida bir qancha kasalliklarning avj olishiga zamin yaratadi. Umumiy birlamchi kasalliklar bilan kasallanish holatlari eng yuqori bo'lgan hududlar ichida Ohangaron tumanining mavjudligi ham aynan shunda.



1-rasm. Toshkent viloyati shaharlarida atmosferaga chiqarilgan iflosantiruvchi muddalar (tonna).

Izoh: Grafik Toshkent viloyati statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

Toshkent viloyati shaharlar orasida Olmaliq va Angren shaharlar atrof-muhitga eng ko'p iflosantiruvchi chiqindilar chiqaradi (1-rasm). Angren, Ohangaron, Olmaliqda nafas yo'li va asab kasalligiga chalinganlarning soni ko'pchilikni tashkil etadi. O'sma kasalliklari xususan, yomon sifatlari o'sma kasalliklari bilan kasallanish Olmaliq, Angren va Chirchiq shaharlar aholisi orasida yuqori hisoblanadi. Anemiya kasalliklari bilan kasallanish Bekobod shahrida sezilarli daraja yuqori bo'lib, bunga sabab metalluriya kombinatidan chiqayotgan zararli chiqindilar hisoblanadi. Ushbu kasalliklarning vujudga kelishi shaharlar havosining iflosanishi va aholi faoliyati bilan bevosita bog'liq hisoblanadi. Hozirgi kunda Angren shahrida 400 ga yaqin, Olmaliq shahrida esa 350dan ortiq sanoat korxonalariga oid tashkilotlar, aksiyadorlik jamiyatlari faoliyat yuritmoqda. Ularning aksariyati bevosita sanoat va ishlab chiqarish bilan aloqador hisoblanadi. Bu esa aynan shu hududlar va ularning atrofida yashovchisi aholi salomatligi uchun ham xavf tug'dirishi mumkin. I.N.Lozanovskaya va boshq. (1998)ning fikricha, kimyoviy iflosantiruvchi muddalarining inson organizmiga ta'siri ikki turda yuz beradi: 1) o'ziga xos tur, bu turkumda organizm sistemasi va kishi organlariga kimyoviy muddalarining ta'siri natijasida ma'lum kasalliklarning vujudga keladi; 2) o'ziga xos bo'lmagan turda esa muddalar boshqa omillar tufayli yuzaga kelgan kasalliklarning rivojlanshishi ijobji ta'sir ko'rsatadi. O'ziga xos ta'sir muddalarni kattaroq miqdorda, o'ziga xos bo'lmagan ta'sir esa kichikroq miqdordagi chiqindilar ta'sirida sodir bo'ladi. O'ziga xos ta'sir ko'pchilik iflosantiruvchi chiqindilarga, shuningdek simob, kadmiy, qo'rg'oshin, mishyak, fтор va boshqalarga mansub. Masalan, ftorning ko'p miqdorda kishi organizmida mavjud bo'lishi tish to'qimalarini shikaslantiradi va suyak a'zolarida turli kasalliklarni keltirib chiqaradi [1].

Nozogeografik vaziyatga ta'sir etayotgan omillardan yana biri ichimlik suvi va suv manbalarining iflosanishi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi Toshkent viloyatidagi ayrim suv havzalari to'qimachilik korxonalari tomonidan iflosantirilayotgani aniqlagan. Bo'zsuv kanalining Zangiota tumani «Tokzor»

MFY hududidan o‘tgan qismiga zaharli kanalizatsiya suvlarini oqizilayotgani ekologik mobil laboratoriya tomonidan o‘rganilgan. Suv tarkibini o‘rganish jarayonida Bo‘zsuv kanaliga tashlanayotgan oqova suvlardan, kanalning 500 metr tepe va past qismlaridan tahlil uchun namunalar olindi. Tahlil natijalari suvning qora rangda ekanligini ko‘rsatdi. Bunga to‘qimachilik korxonalarida ishlab chiqarish jarayonida hosil bo‘ladigan rangli oqova suvlar ta’sir etayotganligi aniqlandi. Hozirda ushu hududdagi «Bo‘zsuv aeratsiya stansiyasi»ning tozalash inshootiga muntazam ravishda me’yordan ortiq ifloslangan moddalar va rangli eritmalar tashlab kelayotgan 7 ta to‘qimachilik va 2 ta qog‘ozni qayta ishlovchi korxonalar mavjudligi aniqlandi. Xuddi shu kabi holat yaqinda Chirchiq daryosida ham aniqlangan edi. Mahalliy aholi daryo suvining ifloslangani va rangi o‘zgargani haqida xabar bergan[7]. Ushbu suv manbalaridan aholi bevosita ekinlarni sug‘orish, ayrim hududlarda esa ichimlik suvi maqsadlarida foydalananadi. Ekinlarning zaharli moddalar bilan ifloslangan suvlar bilan sug‘orilishi natijasida zaharli elementlar o‘simlik tanasiga singadi. Natijada ushbu o‘simlikdan olingan hosilni iste’mol qilgan aholi orasida turli kasalliklar, masalan, oshqozon, o‘n ikki barmoqli ichak kasalliklari, jigar bilan bog‘liq xavfli kasalliklar avj oladi. Shu bilan bir qatorda keksa yoshdagisi aholi orasida uchraydigan kasalliklarni tahlil qilsak(2-jadval), viloyatdagi 65 yoshdan yuqori bo‘lgan aholi orasida aynan shu kasalliklar bilan kasallanish holatlari ancha yuqori va respublikamizdagi o‘rtacha ko‘rsatkichdan ham baland hisoblanadi.

2-jadval

Toshkent viloyatida keksa yoshdagisi aholi orasida eng ko‘p uchraydigan kasalliklar
(har 100 ming keksa yoshdagisi aholiga nisbatan, 2023-y)

Nafas olish a’zolari kasalliklari	Qon aylanish tizimi kasalliklari	Ovqat hazm qilish a’zolari kasalliklari	Ko‘z kasalliklari	Qon va qon yaratish a’zolari kasalliklari, immun mexanizmiga aloqador ayrim buzilishlar
8454,8	4823,3	5188,2	2886,9	2335,4

Izoh: Jadval O‘zbekiston Respublikasi sog‘lijni saqlash vazirligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

Toshkent viloyati sanoat korxonalari, shuningdek kommunal va qishloq xo‘jalik korxonalarini tomonidan suv havzalariga tozalanmagan yoki yetarlicha tozalanmagan oqava suvlarning tashlanishi kimyoviy va biologik ifloslanishga olib kelmoqda. Bu esa viloyat hududidagi suv resurslari ifloslanishining asosiy sababiga aylandi. Suv resurslarining ifloslanishi esa shu suv manbalaridan foydalananadigan aholi salomatligiga bevosita ta’sir qilmoqda.

Xulosa va takliflar. Toshkent viloyatida sanoat korxonalari atrof-muhitga turli zararli chiqindilar chiqaradi. Bu chiqindilar atmosfera havosini, ichimlik suvi va tuproqni ifloslantriradi. Atmosfera havosi, ichimlik suvi va tuproq tarkibida zararli moddalarning ko‘pligi, ularning iflosligi nozogeografik vaziyatga ta’sir etadi. Aholi salomatligini ta’minlash maqsadida mazkur hududdagi korxonalardan chiqayotgan chiqindilarini ushlab qoluvchi, tozalovchi va qayta ishlovchi texnologiyalarni joriy qilish, shu bilan birqalikda aholi orasida yuzaga kelayotgan kasalliklarni oldini olishga doir zaruriy chora-tadbirlarni ishlab chiqish lozim.

ADABIYOTLAR

1. Amanbaeva Z.A. Ohangaron daryosi o‘rtaligi havzasining geoekologik vaziyati va uni optimallashtirish yo‘llari // Geografiya fanlari nomzodi dissertatsiyasi avtoreferati – T., 2004.
2. Komilova N., Ravshanov A., Muxammedova N. Tibbiyot geografiyasi va global salomatlik.-T.:Mumtoz So‘z, 2019.
3. Ermatova N., Komilova N., Xusanova K. Toshkent mintaqasining nozoekologik vaziyati// Ilmiy maqola, O‘zbekiston Milliy universiteti xabarlari – T., 2021.
4. Toshkent viloyati statistika boshhqarmasi ma’lumotlari
5. Toshkent viloyati sog‘lijni saqlash boshhqarmasi ma’lumotlari
6. O‘zbekiston Respublikasi sog‘lijni saqlash vazirligi ma’lumotlari
7. O‘zbekiston Respublikasi ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi ma’lumotlari
8. O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” Farmoni.
9. G. Moon Health Geography. International Encyclopedia of Human Geography,2009, Pages 35-45
10. Serge Morand, Claire Lajaunie A Brief History on the Links between Health and Biodiversity. Linking Life, Ecosystems, Societies 2018, Pages 1-14